

Neft maxsulotlarini yetkazi berish haqidagi SHARTNOMA № 14

“19” 01 2022 y.

Poytug' shaxri

Izboskan tuman irrigatsiya bo'limining quyida "Iste'molchi" deb nomlanuvchi jamiyat nomidan nizomi asosida faoliyat yurituvchi rahbari E.Temirov shaxsligida bir tomondan, ikkinchi tomondan "Andijon neft bazasi" mas'uliyati cheklangan jamiyatining quyida "Etkazib beruvchi" deb nomlanuvchi jamiyat nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor v.v.b A.Mamarasulov shaxsligida, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1.SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. "Etkazibberuvchi", "Iste'molchi" ganeftmahsulotlarini "Iste'molchi"ning talabnomada ko'rsatilgan extiyojlariga asosan tuzilgan va quyida keltirilgan jadvalga binoan etkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

Neftmahsulotlarining turi	Yillik miqdor (tonna)	1 tonna narxi (so'mda) Birja savdolarida aniklan ganur tacha narxda	Taxminiy umumiy summasi	SHu jumladanchoraklar bo'yicha									
				I-chorak		II -chorak		III -chorak		IV-chorak			
				tn	Taxminiy summa	tn	Taxminiy summa	tn	Taxminiy summa	tn	Taxminiy summa		
Avtobenzin AI-80													
Avtobenzin AI-91													
Avtobenzin AI-95													
Dizel yonilg'isi	1.23	12156571	14952582,33	1.23	14952582,33								
Dizel yonilg'isi (EKO)													
O'choq yoqilg'isi													
JAMI:													

1.2. "Iste'molchi" mahsulot uchun to'lovni va mahsulotni qabul qilib olishni tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan belgilangan muddatda va hajmda amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi.

Shartnomaning taxminiy umumiy summasi QQS bilan 14952582,33 (o'n to'rt millio'n to'kkiz yuz ellik ikki ming beshyuz sakson ikki) so'm-33t tashkil qiladi.

2. MAHSULOT ETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI.

2.1. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga o'z avtotransportida, maxsus avtotransportida (tranzit bilan), belgilangan tartibda etkazib beriladi. «Iste'molchi» neft mahsulotlarini o'z tasarrufidagi transport vositasi bilan olib ketishda, neft mahsulotlarini tashishda kuyiladigan barcha yongin va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilishni xamda «Etkazib beruvchi» ga neft mahsulotlarini tashish bo'yicha moliyaviy e'tirozi yo'qligini o'z zimmasiga oladi. Ushbu talablar bajarilmagan xolatda avtotransport vositasiga ruxsat berilmaydi.

2.2. "Iste'molchi"da neft mahsulotlarini saqlash uchun idoraviy neft ombori hamda neft mahsulotlarini tashish uchun maxsus avtotransport vositasi mavjud bo'lsa, bunday iste'molchilarga neft mahsulotlari ularning avtotransportiga yuklab yuborish orqali etkazib berilishi mumkin. Bunday hollarda mahsulotni topshirish va qabul qilish "Mahsulot etkazib beruvchi"ning neft omborida amalga oshiriladi. Mahsulot "Etkazib beruvchi"ning omboridan "Iste'molchi"ning vakili tomonidan transport vositasida olib ketilganda tovar-transport hujjatlari rasmiylashtirilgan sana "Etkazib beruvchi" tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Iste'molchi"ning maxsus avtotransport vositasida neft mahsulotlarini tashish "Havfli yuklarni tashish qoidalari"ga muvofiq amalga oshirilishi shart. Aks holda transport vositasi "Etkazib beruvchi" neft omboriga kiritilmaydi.

2.3. Neft mahsulotlari "Iste'molchi"ga "Etkazib beruvchi"ning maxsus transport vositasida etkazib berilsa, mahsulotni topshirish va qabul qilish "Iste'molchi"ning neft omborida amalga oshiriladi. Mahsulot "Iste'molchi"ning omborida "Iste'molchi"ning vakili tomonidan mahsulotni qabul qilinganligi to'g'risida tovar-transport naqliyotiga imzo qo'yilgan sana "Etkazib beruvchi" tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. Mahsulotni topshirish va qabul qilish bevosita "Iste'molchi" vakilining xoxishiga ko'ra "Etkazib beruvchi"ning neft omborida amalga oshirilishi mumkin.

2.4. Neft mahsulotlari "Etkazib beruvchi"ga tegishli bo'lgan yonilg'i tarqatish shahobchasi orqali etkazib berilsa, buning uchun "Iste'molchi"ning ishnochnomasiga muvofiq mahsulotni yoqilg'i tarqatish shahobchasidan olish to'g'risida ruxsatnoma rasmiylashtiriladi. Mazkur ruxsatnoma "Iste'molchi"ning vakili tomonidan yonilg'i tarqatish shahobchasiga taqdim qilinadi. SHaxobcha operatori o'z navbatida tarqatish varaqasi yuritadi. "Iste'molchi" vakiliga berilgan mahsulot miqdori tarqatish varaqasiga kiritib boriladi. Tarqatish varaqasida "Iste'molchi"ning vakilining mahsulotni miqdoran to'liq olganligi to'g'risida imzo qo'yilgan sana, «Etkazib beruvchi» tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

2.5. Mahsulot «Iste'molchi»ning manziliga tranzit tartibda temir yo'l transportida etkazib berilganda, temir yo'l nakladnoyiga yukni tashishga qabul qilinganligi to'g'risida qo'yilgan belgidagi sana «Etkazib beruvchi» tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. Bunday holatlarda mahsulotni qabul qilish amaldagi "Neft, gaz kondensati va neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, tashish va hisobini yuritish bo'yicha qo'llanma"ga muvofiq amalga oshiriladi.

2.6. Mahsulotga egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, mahsulotga ziyon etish xavfi «Etkazib beruvchi» shartnoma majburiyatini bajargan sanadan e'tiboran «Iste'molchi» ga o'tadi.

2.7. Neft baza omboriga mahsulot quyish uchun olib kelingan avtomobil sistemalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob bermagan takdira avtotransport vositasiga ruxsat berilmaydi. Mazkur transport vositalarining bo'sh ketishi uchun javobgarlik "Iste'molchi" zimmasiga, mahsulot maxsus avtotransportida tashiladigan bo'lsa, transport tashkiloti zimmasiga tushadi.

2.8. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotransport vositasida (Iste'molchi)ning avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) neft baza yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi. Tamg'alash "Iste'molchi"ning talabiga binoan amalga oshiriladi.

2.9. "Etkazib beruvchi" neft mahsulotlari ta'minotining uzilishlari neftni qayta ishlash zavodlaridan etkazib berilmasligi yoki temir yo'l aybi bilan o'z vaqtda etkazib bermaganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

3. HISOB – KITOB TARTIBI VA NARXLARI

3.1. Ushbu shartnoma o'zaro xisob-kitoblardan asos hisoblanadi. Hisob-kitoblardan to'lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi.

3.2. "Iste'molchi" o'layotgan neft mahsulotlari partiyasi uchun haqini oldindan kamida 5 kun oldin 100% miqdorida «Etkazib beruvchi»ning xisob-raqamiga xaq to'laydi.

3.4. SHartnoma summasi neft maxsulotlarini "Etkazib beruvchi" ta'monidan birja savdolari orqali sotib olish narxlarini, neft maxsulotini tashish bilan bog'lik temir yul xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Xukumati va Moliya Vazirligi qarorlariga asosan o'zgartirilganda yoki neft maxsulotlari taminoti korxonalarining ustama narxlarini o'zgartirganda, yoxud narxlar boshqa ob'ektiv sabablarga ko'ra o'zgartirganda shartnomaning umumiy qiymati o'zgaradi ushbu shartnoma bo'yicha etkazib beriladigan neft maxsulotlariga nisbatan yangi narxlar qo'llanadi va bu xaqida shartnomaga o'zgarish kiritish uchun qo'shimcha kelishuv bitimi tuziladi.

4. NEFT MAXSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI.

4.1. Neft maxsulotlarining miqdori va sifati bo'yicha qabul qilib olish quyidagicha amalga oshiriladi:

a) «Etkazib beruvchi» neft bazasidan «Istemolchi» vakilining neft maxsulotini olib chiqishi qabul qilish xujjatlarini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish orkali;

b) «Iste'molchi» tranzit orkali maxsulotlarni kabul qilishda amaldagi miqdor va sifat yo'riqnomalariga (P-6, P-7) asosan ish yuritadi.

4.2. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, maxsulotga ziyon etish xavfi «Etkazib beruvchi» korxonasi xududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi» ga o'tadi.

4.3. Neft mahsulotlarini miqdor va sifati buyicha "Iste'molchi", "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdori va sifat jihatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi yuriqnomaga xamda boshqa me'yoriy xujjatlarga amal qilinadi.

5. MAHSULOT SIFATI

5.1. "Iste'molchi" neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda joyida mahsulotning sifati va miqdorini tekshirib oladi.

5.2. Etkazib beriladigan mahsulot sifati Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu mahsulot ortish va kuzatuvchi xujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.3. Neft mahsulotlarini olgan iste'molchi ularning sifati shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. SHartnomaning xarib bajarilmagan bandlari uchun tomonlar moddiy javobgardir.

6.2. «Etkazib beruvchi» «Iste'molchi» ga sifati Davlat standart va texnik shartlarga javob beradigan neft maxsulotlarini etkazib berishni kafolatlaydi. Xarikitomon neft maxsulotlarini etkazib berish va qabul qilishda amaldagi 1510 va 2517 Davlat standartlari asosida ish yuritadi.

Neft maxsulotlarini xisob — kitobi va tarqatilishi amaldagi qonun va me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

6.3. «Iste'molchi» neft maxsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

6.4. «Iste'molchi» tomonidan uning xududiga olib kelingan neft maxsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishi ta'minlanadi.

6.5. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va etkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Etkazib beruvchi» ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va Etkazib beruvchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'liq qiymatini undirish xuquqiga ega.

6.6. Ushbu shartnoma biron bir shartning bajarilmaganligi uchun javobgarlik belgilanmagan bo'lsa, u xolda mazkur bajarilmagan shartlar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi tug'risida»gi konunga binoan qo'llaniladi.

7. FORS-MAJOR XOLATLAR

7.1. Xar ikki tomon xam quyidagi xolatlarda majburiyatlarini bajarilmaganlikda javobgarlikka tortilmaydilar;

- agarda tabiiy ofat, suvtoshqini, yong'in, zilzila va boshqalar oqibatida yuz bersa,

- neftni qayta ishlash zavodlari, «O'zbekiston temir yullari» DAJK aybi bilan, shuningdek yuqori tashkilotlar tomonidan etkazib berish xajmi va muddati o'zgartirilganda, shuningdek AYOQSHlar va neft baza faoliyati tekshiruvchi organlar tomonidan vaqtinchalik to'xtatib qo'yilganda, O'zbekiston Respublikasi xukumati, Vazirlar Maxkamasi va boshqa qonunni belgilovchi tashkilotlar qaroriga asosan neft maxsulotlarini etkazib berish va ta'minlash mexanizmi va tartibiga o'zgartirish kiritilgan xollarda.

8. QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1.

9. NIZOLARNI KURIB CHIKISH VA SHARTNOMANING AMALDA BO'LISHINI TO'XTATISH TARTIBI

9.1. Mazkur shartnoma kiritilgan xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, xar ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

9.2. Mazkur shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan xar qanday tortishuv kelishmovchiliklar ikkala tomonning o'zaro muzokarasi yo'li bilan xal etiladi. Ikkalatomon mustakil xal eta olmaydigan masalalar belgilangan tartibda iktisodiy sudlarida xal etiladi.

9.3. Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzildivateng xukukiy kuchga ega.

9.4. SHartnoma tomonlar o'rtasida imzolagandan so'ng va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabr gacha amal qiladi.

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Etkazib beruvchi»

«Istemolchi»

Nomi: "Andijon neft bazasi" MChJ Poytug' filiali
Manzil: Izboskan tumani J.Siddiqov ko'chasi
17-uy

H/R: 22604000700285788702

H/R: 22604000500285788701


ИНН: 200240109, МФО: 00432

Bank: "Uzsanoatqurilishbank" ATB Yashnabod filiali. Телефон: (74) 291-11-22

Direktor v.v.b.  A. Mamarasulov

Nomi: Izboskan tuman irrigatsiy bo'limi
Manzili: Nakshband ko'chasi 4 -uy
ShHR: 100022800032147042402170001
INN: 305082805 OKED: 01613
Moliya vazirligi Gaznachiligi
Markaziy bank Toshkent shahar BB XKKM
H/R: 23402000300100001010
МФО: 00014, ИНН: 201122919

Rahbar:  U. Axunov



ЮРИДИК АҲАМИЯТГА ЭГА ХУЖЖАТЛАРНИНГ ҚОНУН
ХУЖЖАТЛАРИГА МУВОФИҚЛИГИ ТЎҒРИСИДА ҲУҚУҚИЙ ХУЛОСА

LV28567376

1. Лойиҳанинг тури: Ички буйруқ
2. Лойиҳанинг номи: Хўжалик муносабатлари
3. Буйруқ лойиҳа ишлаб чиқувчиси ва киритилган сана ҳақидаги маълумот: Отдел ирригации Избасканского района томонидан 2022-йил 26-январь куни ишлаб чиқилган ва дастурга киритилган.

Лойиҳа амалдаги қонун ҳужжатларига мувофиқ ишлаб чиқилган ва уни қабул қилиш мақсадга мувофиқ.

Юридик хизмат кўрсатиш маркази
Бош юристкўнсулити



А.Зухридинов

26.01.2022